

**KIMYOVIY MAXSUS VOSITALAR VA  
ULARDAN FOYDALANISH****СПЕЦИАЛЬНЫЕ ХИМИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА  
И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ****HEMICAL SPECIAL AGENTS  
AND THEIR USE****Ashirov Rashidbek Azimboevich**

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Xorazm akademik litseyining  
Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Kimyoviy maxsus vositalar huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, terrorizm tahdidlarini kamaytirish va maxsus operatsiyalarni o‘tkazishda qo‘llaniladi. Bunday vositalarga ko‘zdan yosh chiqaruvchi gazlar, elektroshok vositalari, kimyoviy identifikatsiya reagentlari va dezinfektsiya materiallari kiradi. Ular jinoyatchilarni zararsizlantirish, noqonuniy moddalarni aniqlash va xavfsizlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning qo‘llanilishi qonuniy tartibga solinishi va inson huquqlariga rioya qilingan holda amalga oshirilishi lozim.

**Аннотация:** Специальные химические средства используются правоохранительными органами для поддержания общественного порядка, борьбы с преступностью, снижения террористических угроз и проведения специальных операций. К таким средствам относятся слезоточивые газы, электрошоковые устройства, химические идентификационные реагенты и дезинфицирующие материалы. Они играют важную роль в нейтрализации преступников, обнаружении незаконных веществ и обеспечении безопасности. Их применение должно регулироваться законодательством и осуществляться с соблюдением прав человека.

**Abstract:** Special chemical agents are used by law enforcement agencies to maintain public order, combat crime, reduce terrorist threats, and conduct special operations. These agents include tear gases, electroshock devices, chemical identification reagents, and disinfection materials. They play a crucial role in neutralizing criminals, detecting illegal substances, and ensuring security. Their use must be regulated by law and carried out with respect for human rights.

**Kalit so‘zlar:** Kimyoviy vositalar, huquqni muhofaza, xavfsizlik, jinoyatchilik, terrorizm, maxsus operatsiyalar.

**Ключевые слова:** Химические средства, правоохранительные органы, безопасность, преступность, терроризм, спецоперации.

**Keywords:** Chemical agents, law enforcement, security, crime, terrorism, special operations.

**Kirish.**

Kimyoviy maxsus vositalarning dolzarbligi. Bugungi kunda global xavfsizlik, ekologik muammolar va texnologik taraqqiyot kimyoviy maxsus vositalardan foydalanish zaruriyatini yanada oshirmoqda. Kimyoviy maxsus vositalar – bu turli xil xavfli va zaruriy sharoitlarda qo‘llaniladigan moddalar bo‘lib, ular harbiy, huquq-tartibot, sanoat va ilmiy maqsadlarda ishlatiladi. Ushbu vositalarning qo‘llanilishi zamonaviy jamiyatda dolzarb masalalardan biri bo‘lib, ular xavfsizlik, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda katta ahamiyat kasb etadi.

Biz avvalom bor maxsus vositalar nima ekanligini va ular qo‘llanilgan sharoitlarda tirik jonzotga qanday o‘z ta‘sirini o‘tkazishini va qanday oqibatlariga olib kelishini, oddiy qilib aytganda xozirgi XXI asr globallashuv texnika asri deb atalmish zamonda yashayotgan ekanmiz, biz birinchi navbatda xar tomonlama sergak va oqox bo‘lishimiz kerak. Butun jaxon aholisini xozirgi kunda qayg‘uga solayotgan narsa bu ommoviy qirg‘in qurollari. Ommoviy qirg‘in qurollari hammamizga ma‘lum uchta katta siniflarga bo‘linadi agarda bu qurollardan qo‘llanilsa er yuzini yo‘q qilib yuborish ta‘siriga ega. Shu munosabat bilan biz xozirgi kunda butun jaxon qurolli kuchlarida ega bo‘lgan maxsus vositalarni qanday sharoitlarda qo‘llanilishi va ular kimlarga nisbatan qo‘llanilishi, kimlarga nisbatan qo‘llanilmasligi ularni qo‘llagan sharoitda qanday ta‘sir ko‘rsatishi va ulardan himoyalanih bo‘yicha xavfsizlik qoidalariga amal qilishimiz kerak, ushbu maxsus vositalar asosan ko‘zdan yosh oqizuvchi yoki burun shilliq pardalariga ta‘sir etuvchi maxsus vositalar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi[1].

Ushbu ma‘lumot jamoat joylarida fuqarolarni qonun muxofazasida bo‘lgan huquq va erkinliklariga tajovuz qilayotgan dushmanlar (tartibbuzarlar)ga qarshi shaxsiy tarkib tomonidan maxsus himoya vositalarini to‘g‘ri qo‘llanilishi va ulardan foydalanish tartibi haqida tushuncha beramiz.

**Asosiy qism**

**Maxsus himoya vositalarini quyidagi xolatlarda qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir:** ommaviy tartibbuzarliklarni bartaraf etishda, guruxlar tomonidan jamoat tartibini kuch ishlatish orqali buzuvchilarga nisbatan;

davlat va jamoat binolariga xujum bo‘lgan holatlarni va shu vaqtning o‘zida tartibbuzar fuqarolar tomonidan binolar (idoralar, davlatga talluqli bo‘lgan avtomobil va boshqa maxsus ob‘ektlar) noqonuniy tarzda egallab olinishi mumkin bo‘lgan holatlarni oldini olish hamda xujumni bartaraf etishda;

ommaviy tartibni saqlashga jalb qilingan fuqarolar (huquqni muxofaza qilish organi xodimlari)ga nisbatan tartibbuzarlar tomonidan xujum bo‘lganda uni oldini olishga va xujumni qaytarishga hamda asir olingan fuqorolarni ozod qilishda;

huquqbuzarlar tomonidan ozodlikdan maxrum qilinganlarni saqlash joylarida xizmat qiluvchi xodimlarga nisbatan qarshilik ko‘rsatilganda va joylardan qochishga urinish sodir etilganda ularni to‘xtatish va qo‘lga olishda.

Maxsus himoya vositalari tartibbuzarlarga nisbatan oqoxlantirishning har qanday shakli va ko‘rinishi natija bermagan holatlardagina qo‘llaniladi.

Maxsus himoya vositalarini noqonuniy ravishda qo‘llaganlar belgilangan tarzda qonuniy javobgarlikka tortiladilar.

#### **Maxsus vositalaridan himoyalash tartibi**

shaxs gaz-tutun bulut ta’sir doirasiga tushib qolgan hollarda darxol ko‘zni qattiq yumgan holda nafas olmasdan xavfli xududni tark etish lozim;

agarda ko‘zlar engil zararlanib, yoshlansa xavfli xududdan chiqqan shaxs shamol esayotgan tomonga yuzlangan holda turadi va 1-2 daqiqa o‘tganidan so‘ng ko‘zlarning achishishi o‘tib ketadi;

agar ko‘zlar kuchli zararlanib, achishish yoki kuchli og‘riq xosil bo‘lsa u holda ko‘zlarni ichimlik sodasining 2% li eritmasi bilan namlangan tampon (toza dastro‘mol, bint) bilan artish, so‘ngra yuz va qo‘llarni sovun bilan toza suvda yuvish lozim bo‘ladi;

xloratsetafenon bilan og‘ir zararlanganda yoki CS zaxarli moddasi bilan zararlangan xollarda terining zararlangan joylariga qo‘l bilan tegish mumkin emas, va zudlik bilan tibbiy muassasalarga murojaat qilish kerak [2].

#### **Maxsus himoya vositalarini qo‘llash man etiladi:**

yosh bolalar, homilador va yosh bolali ayollarga nisbatan, nogiron va og‘ir bemorlarga nisbatan;

chet el diplomatik vakillari bo‘lgan binolarga nisbatan qo‘llash taqiqlanadi, ammo ular tomonidan maxsus himoya vositalarni qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma kelib tushgan holatlarda maxsus himoya vositalari qo‘llanilishi mumkin;

portlovchi moddalar saqlanadigan va ishlab chiqariladigan inshootlarda.

#### **Havfsizlik chora-tadbirlari.**

Har bir maxsus himoya vositalarini qo‘llash holatlaridan oldin xavfsizlik choralari va birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish choralari ko‘rilishi lozim. Vositalarni qo‘llashga jalb qilingan xuquqni muxofaza qilish organi vakillari va harbiy xizmatchilar birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish tartibini bilishlari shart. Har bir vositani qo‘llash jarayonida tibbiyot xodimlari ishtirok etishi lozim.

Har bir o‘tkazilgan tadbir yakunida maxsus vositalar qo‘llanilgan xududlar (inshootlar, binolar, avtomobillar) ko‘zdan kechiriladi va jabrlanganlar, hayotiga xavf tug‘ilganlar aniqlanadi va vositalarni to‘liq ishlab tugamaganlari tekshirib chiqilib, zararsizlantiriladi.

Maxsus himoya vositalarni qo‘llagan harbiy xizmatchilar (xuquqni muxofaza qilish organi vakillari) vositalarni kimga nisbatan, qachon, qaerda va nima sababdan qo‘llangani haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshlig‘iga yozma ravishda bildirgi bilan ma’lumot beradi.

Maxsus himoya vositasi qo‘llanilgan vaqtda gaz-tutun bulutining ta’sir doirasiga tushib qolgan operatsiya ishtiroqchilari darxol xavfli xududni tark etishlari va xavfsiz joyga ketishlari kerak;

zararlangan shaxsga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish uchun avvalo unga nafas olishida faollikni oshirish uchun nashatirli spirti (ammiakning 10% li eritmasi) hidlatiladi va ko‘zlarni yuvish uchun ichimlik sodasining 2% li eritmasi yoki borat kislotasidan foydalaniladi;

mutaxassislar gaz-tutun bulut ta'sir doirasida ishlayotgan vaqtda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishlari shart, aks holda sog'lig'iga jiddiy ziyon etishi mumkin[3].

#### Maxsus vositalarning taktik - texnik tavsifnomasi[4]



**Cheremuxa-1-** qo'l gaz tarqatuvchi granata bo'lib, ochiq sharoitda tarkibida ko'zdan yosh oqizuvchi moddadan chidab bo'lmaydigan miqdorda mavjud bo'lgan gaz-tutinli bulut xosil qilish uchun mo'ljallangan. CS zaxarli moddasi bilan to'ltirilgan. Vazni 200gr, uzunligi 135mm, diametri 47mm, tutin chiqarish vaqti 40 dakika, oldinga 25m, ichkariga 250m, yonish vaqti 4 daqiqa yonginga xavfli. Rossiya federatsiyasida ishlab chiqarilgan.



**Cheremuxa- 4** - gazlangan tutun tarqatuvchi patron bo'lib, undan keng hududga qarata 26-mm bo'lgan signal beruvchi pistolet yordamida otish orqali foydalaniladi. Qo'l lanilgan vaqtda ob-havoning qoniqli meteorologik mavsumi jarayonida ko'zdan yosh oqizuvchi 50m<sup>3</sup> sig'imli CS zaxarli moddasi bilan to'ldirilgan tutundan iborat bulut xosil qiladi va tutun 8-10metr front bo'yicha va 50metr ichkari bo'yicha tarqaladi. Patron 26-mm kalibr, 49gr og'irlikka ega va 165metr uzoqlikka otiladi.



**Siren - 10** - aerosol xosil qilib, qonunbuzarlarga nisbatan bevosita ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Vazni 100gr, qo'llanish mumkin bo'lgan harakat diapazoni -5dan +50 gacha, tarkibida faol moddalarni chiqarish masofasi, 30sm dan 90sm gacha, qonunbuzarlarga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgan vaqt davomiyligi 203daqqa. Rossiya federatsiyasida ishlab chiqarilgan.



**Kontro I-M** - aerosol xosil qilib, qonunbuzarlarga nisbatan ko'zdan yosh oqizuvchi moddadan chidab bo'lmaydigan miqdorda bevosita ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Og'irligi 70gr, qo'llash harorati minus - dan +50<sup>0</sup>, aktiv takribning borish uzoqligi 2,5dan 3 metrgacha, tartibuzarga ta'sir qilish vaqti 2-3 soniya, olovga xavfli.



**Model 718 (60x60)** - qo'l rang tarqatuvchi granata bo'lib, ochik sharoitda tarkibida rang bulut xosil qilish uchun mo'ljallangan. Korpusi karton, dimetri 69mm, uzunligi 114mm, vazni 310gr, yonish vaqti 3 daqiqa. Israilda ishlab chiqarilgan.



**Model-5-** ochiq joylarda va binolar orasidagi namoyishchilarni quvish uchun; - namoyishchilar band bo‘lgan keng xududda ko‘zdan yosh oqizuvchi gazlar bilan qoplash uchun; -qamoqxona hududlarida maxbuslarni haydab tarqatish uchun; -terrorizmga qarshi kurash maxsus bo‘linmalari tomonidan garovga olinganlarni ozod qilish uchun mo‘ljallangan. Uzoqlikka ko‘zdan yosh oqizuvchi gaz otish 12-15m, shamol bo‘lganda ta’sir doirasi  $60m^3$ , tugan ballonning vazmi 5kg, zaxarlovchi modda vazmi 1300gr, gazning vazni 700gr. Izroilda ishlab

chiqarilgan.



**RDG-2x,b,ch** - qo‘l tutun tarqatuvchi granatalari tutun parda yordamida (maskirovka qilish) niqoblash uchun jang maydonida yakka askarlar yoki kichik bo‘linmalarni va yarador askarlarni jang maydonidan olib chiqish, dushmanning kuzatish asboblari vaqtinchalik ko‘rish xususiyatini cheklash uchun ishlatiladi, hamda jangovar harbiy texnikadan ekipaj a’zolarini chiqib olishini ta’minlash uchun ishlatish, jang maydonida turli hil vaziyatlarda qo‘llanilishi mumkin.

RDG-2x – oq tutunli metolloxlorid aralashmasi;

RDG-2ch – qora tutun atrotsen aralashmasi;

RDG-2b – qora tutun atrotsen aralashmasi.

| Nomlari                                   | RDG-2x        | RDG-2b        | RDG-2ch       |
|-------------------------------------------|---------------|---------------|---------------|
| Og‘irligi, kg                             | 0,5-0,6       | 0,5-0,6       | 0,5-0,6       |
| Yonish vaqti, s                           | 15 s<br>gacha | 15 s<br>gacha | 15 s<br>gacha |
| Tutun hosil qilishning tez davomiyligi, s | 1-1,5         | 1-1,5         | 1-1,5         |
| Tutun pardasining ko‘rinmas uzunligi, m.  | 25-35         | 20-25         | 10-15         |

**Kimyoviy maxsus vositalarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi amaliy ahamiyati.** Kimyoviy maxsus vositalarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi roli juda katta. Ular jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, terrorizm tahdidlarini kamaytirish va maxsus operatsiyalarni o‘tkazishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Biroq, ularning qo‘llanilishi xalqaro va milliy qonunchilik bilan tartibga solinishi, inson huquqlari va xavfsizlik tamoyillariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

**Xulosa qilib aytadigan** bo‘lsak barcha kimyoviy elementlardan tashkil topgan maxsus vositalar tirik jonzoatni qirib tashlash uchun yoki qiynash uchun mo‘ljallangan bo‘ladi,

yuqorida ko‘rsatilgan fikrlardan xulosa qilib hozirgi kunda bizlar doimo yon atrofimizga etiborli bo‘lishimzni taqozo etyapdi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Sotvoldiev A. Chaqiriqqacha harbiy ta’limni tashkil etish va uning metodikasi. – 2010.
2. Akademik litseylarning chaquruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani dasturi. 2020.
3. O‘tayev M., Karimov A. "Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida maxsus vositalardan foydalanish" – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2020.
4. Qodirov S. "Kriminalistika va maxsus vositalar" – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2019.
5. Z. F. Ilyosova. «Hayot xavfsizligi asoslari», Toshkent, 2001yil.
6. Marifjanovna, I. D. (2024). NEMIS TILINI ORGANISHNING SAMARALI USULLARI. PEDAGOG, 7(9), 138-139.
7. Maripfjanovna, I. D. (2024, June). The Importance of Poems and Songs in the Development of German Vocabulary in Young Children. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (Vol. 8, pp. 1-3).
8. Durdona, I. (2024). INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING CHET TILI O‘QITISHDAGI O‘RNI. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(1), 227-232.
9. Isamutdinova, D. (2024). INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNALOGIYA ASOSIDA CHET TILI DARSLARINI TASHKIL QILISH. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(1), 86-89.
10. Isroilova, H., & Isamutdinova, D. (2024). INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(2), 218-223.
11. Isamutdinova, D. (2024). LANGUAGE AS A CULTURAL HERITAGE. Экономика и социум, (4-1 (119)), 175-179.